



AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TARIXINING YEVROPA
MAMLAKATLARIDA O'RGANILISHI

Durdona Doniyorova

O'ZMU, Tarix fakulteti, Tarix yo'nalishi, II bosqich talabasi

E-mail: doniyorovadurdona8@gmail.com

“Amir Temurning tarix sahnasiga kelishi tasodif emas, zero, u o'z davrining eng iqtidorli vakili edi”

Xil'da Xukxem

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIV asrning eng yorqin vakili, yirik davlat arbobi va shu bilan birga fan va madaniyat homiysi sanalgan Amir Temurning shonli tarixini Yevropa mamlakatlari tadqiqotchilari tomonidan keng ko'lamli o'rganilishi ochib berilgan. Temurshunoslik rivojiga tamal toshini qo'ygan olimlarning chuqur ilmiy izlanishlari natijasida sohibqiron saltanatining muhim qirralari asosli yoritib berilgan.

Kalit so'zlar : Amir Temur , Rui Gonsales de Klavixo , Temur maqbarasi , “Samarqandga Temur saroyiga sayohat kundaligi”, Fransiya.

AMIR TEMUR AND THE STUDY OF THE HISTORY OF THE TIMURIDS IN
EUROPEAN COUNTRIES

Annotation: This article reveals the extensive organization of the glorious history of Amir Temur , who is considered the brightest representative of the 14 th century , a great statesman , and at the same time a patron of science and culture , by researchers from European countries . As a result of in-depth scientific research by the scientists who laid the foundation stone for the development of Temurology , the important aspects of the Sahibqiran kingdom have been reasonably explained.

Key words: Amir Temur , Rui Gonzalez de Clavijo , Temur Mausoleum , ”Diary of a trip to Samarkand to Timur Palace”, France.

Insoniyat tarixida eng katta imperiyalardan biri- Temuriylar imperiyasi asoschisi Amir Temur nafaqat harbiy sarkarda, balki bunyodkor sifatida ham tarixda iz qoldirgan [1].

Amir Temur davlati qurilishi , harbiy san'ati ko'p asrlar davomida Sharq-u G'arb davlatlariga o'rnak va andoza bo'ldi. Uning hukmronligi davrida madaniyat , ilm-u fan , me'morchilik , tasviriy san'at , musiqa, she'riyat beqiyos rivoj topadi ,xalqimizning ko'p an'analari takomiliga yetdi.

XIV asrdagi bu buyuk shaxs sharafiga tantanalar Yevropaning markazi, tarixning o'zi yaqqol ko'rinib turgan , ma'rifat , ilm-fan , san'at , abadiy go'zallik shahri hisoblangan- Parijda boshlanayotganligi chuqur ramziy ma'noga ega.



O'zbekiston xalqi Fransiya, Buyuk Britaniya va Germaniyada va boshqa mamlakatlarda Amir Temur shaxsi bilan qiziqishi hech qachon so'nmaganiga minnatdorlik bilan qaraydi [2, 9b].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Shavkatli sarkarda va davlat arbobi Amir Temur bilan o'z vaqtida yuzma-yuz muloqotda bo'lgan yevropalik ikki elchi -Klavixo va Sultoniya arxiyepiskopi Ioann xotiralari Rui Gonsales de Klavixoning "Buyuk Amir Temur tarixi" asarida bayon etilgan [3].

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida Amir Temur hayoti yoritilgan, bu asar Amir Temur haqidagi ishonchli manbalardan biri. Asar Ibrohim Sulon ibn Shoxrux Mirzo saroyida yozilgan [4].

Temur vafoti, uning dafn marosimi va maqbarasining holati haqida Ibn Arabshoh keltirgan ma'lumotlarni V.V.Bartold o'zining Temur dafniga bag'ishlangan asarida batafsil bayon qilib, Temur maqbarasi ichki manzarasining bezagi va keyingi o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlarni faqat Ibn Arabshoh keltirganini ta'kidlab, o'z asarida ushbu faktlarga tayanib ish yuritadi [5].

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu maqolani yozishda tizimli yondashuv va siyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Temur hayoti va faoliyati xarakteristikasiga bag'ishlab 1946-yilda yozilgan maxsus tadqiqotda Yakubovskiy Ibn Arabshohning "Ajoyib ul-maqdur" asaridan bir qadar keng foydalangan. Ayniqsa, Temurning yoshlik yillari, uning dastlabki faoliyati, Temur jismi va qiyofasining vasfi, ulamolar bilan munozara-yu suhbatlari va nihoyat Temur maqbarasining ichki bezagi haqida Ibn Arabshohning keltirgan ma'lumotlari olimning e'tiborini tortgan [5].

Amir Temur saroyidagi muhitni, u yerdagi tartib-qoidalarni o'rganishda Ispaniya elchisi Rui Gonsales Klavixoning "Kundaligi" katta ahamiyatga ega. Klavixo Amir Temurning xotinlari, kelinlari va nabiralarni ham ko'rgan, uning o'zi bilan uchrashgan, saroydagi hayotini kuzatgan. Shu sababdan uning "Kundaligi" Amir Temur davlatining ichki hayotini, uning Yevropa davlatlari bilan olib borilgan munosabatlari tarixini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Klavixoning "Kundaligi"da Amir Temurning kelib chiqishi, uning ota-bobolari, Amir Temur va avlodi tasarrufida bo'lgan xalqlar va mamlakatlarning umumiy ahvoli, ularning urf-odat haqida, shuningdek, Sohibqiron amri bilan barpo etilayotgan mahobatli qasrlar, masjid-u madrasalar, bozor rastalari, bog'lar haqida qimmatli ma'lumotlar bayon etilgan.

Rus tarixchisi A.Yu.Yakubovskiy: "Amir Temur yoshligidayoq aqlining tiniqligi va jasurligi bilan ajralib turardi. Unda harbiy iste'dod erta namoyon bo'ldi, u otda yurish mashqini olgan va kamondan otishga mohir edi" deb ta'riflangan [2, 41b].

B.Mans quyidagicha fikr bildirgan: "Amir Temurning hayoti haqidagi ma'lumotlar orasida uning faqat tuyg'ugagina emas, balki ma'naviylikka ham asoslangan favqulodda kuchli aqliy qobiliyatlari ko'zga yaqqol tashlanib turardi. O'ziga sodiq jangchilarni jalb etish va ularni tutib turishga, o'ta darajada harakatchan siyosiy tuzilma ishlashga, ana shu tuzilmani o'zgartirish va qo'shinlarni ko'z ko'rib quloq eshitmagan ko'lamdagi



zafarlarga eltishga qodir tajribali siyosatchilar va lashkarboshilar orasida birinchi edi” [2,51b].

Fransiya , Buyuk Britaniya , Germaniya va boshqa g'arb mamlakatlarida Amir Temur va Temuriylar davri bilan qiziqishi hech qachon so'nmagan. Bunga misol B.B.Bartoldning quyidagi fikri :

“Shubhasiz , Amir Temur ulamolar homiysi edi , ular bilan tengma-teng suhbatlashardi , payg'ambarlar avlodlariga alohida hurmat munosabatida bo'lardi ” [2, 69b].

Sohibqiron doimo aziz-avliyolarning hurmatini bajo keltirib , ular xotirasiga alohida ehtirom bilan qarardi. Masalan , suriyalik olim Akram Hasan al-Alabiyning yozishicha , Damashqda turganida Amir Temur Muhammad payg'ambarning xotinlari Umm Solama va Um Habibaning maqbaralari ustiga munosib gumbazlar qurdirgan [2, 70b].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki , chamasi, umrining oxirlarida , xususan turk sultoni Yildirim Boyazid ustidan qozongan g'alabasidan keyin Amir Temur Makkai mukarramani ziyorat qilib , haj ibodatini ado etishni irodat qilganlar . Har holda , o'sha davr voqealaridan yaxshi xabardor bo'lgan XV asr misr tarixchisi Ibn Tag'riberdining yozishicha , 1404-yilda Sohibqironning Makkai mukarrama ziyoratiga kelishi haqida muqaddas shaharda xabar tarqalgan. Lekin no'malum sabablarga ko'ra Sohibqironning ushbu ziyorati amalga oshmay qolgan [2, 72b].

Haqiqatan ham , Amir Temur jahon tarixida qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatidagina mavqe tutmaydi. Buyuk ajdodimizning eng muhim fazilatlaridan biri shuki , ul zot bundan olti asr avval davlatlararo o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, uzoq va yaqin xalqlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlash o'z saltanati yorqin istiqbolini ta'minlashning muhim omili ekanini teran anglagan . Xorijlik mutaxassislar tomonidan ilmiy asosda e'tirof etilganidek , Amir Temur tarixda o'z davrining eng mohir diplomati sifatida chuqur iz qoldirgan .

Tarixiy hujjatlarning dalolat berishicha , XIV asrning 70-yillaridanoq Yevropa davlatlari vakillari Movarounnahrda kelib , bu yerdagi yangi mustaqil davlatning qudrati va salohiyati bilan jiddiy qiziqqanlar .

Fransuz sharqshunoslari Sohibqiron va u asos solgan buyuk sulola tarixini yoritishda faqat harbiy yurishlar va amalga oshirilgan ishlar solnomasini tuzish bilan cheklanmasdan , o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy – mafkuraviy muhitini hamda Amir Temurga va uning avlodlariga xos sof insoniy fazilatlarini , ularning davlat , jamiyat , din va ilm-fanga bo'lgan munosabatini ham atroflicha tadqiq qilishga alohida e'tibor beradilar.

Amir Temur va Temuriylar tarixini har tomonlama chuqur o'rganish faqat ilmiy va ma'rifiy ahamiyat kasb e'tib qolmasdan , tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga ham egadir .

Jahon sharqshunoslarini Sohibqiron Amir Temurning shaxsiy fazilatlarini , bilimdon davlat boshlig'i , muzaffar sarkarda va mohir diplomat sifatida shakllanishi , Temuriylar saltanati yuksala borganligining sirlari hamda inqirozining sabablari qiziqtiradi . Amir



Temurning jo'shqin hayoti va serqirra faoliyati haqida o'zbek, turk, arab, fors, fransuz, ingliz, nemis, ispan, hind, xitoy va boshqa tillarda ko'pdan ko'p ilmiy, tarixiy, ommabop, badiiy asarlar yozilgan. Parij va London sahnalarida pyesa va operalar qo'yilgan [6, 22b].

Kastiliya qirolining elchisi Rui Gonsales de Klavixoning "Samarqandga Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406)" nomli kitobi Yevropada eng muhim manbalardan hisoblanadi.

Rus sharqshunoslari XIX asrning ikkinchi yarmidan Amir Temur shaxsiga o'rganishga astoydil kirishganlar.

Fransuz sharqshunolarining Amir Temur va Temuriylar davri tarixini o'rganish miqyosi keng bo'lib, ular o'sha davr boshqaruv va harbiy tizimini, madaniyati, dini, falsafasi va ilmiy tafakkurini atroflicha yoritadilar [6].

L.Keren va yirik huquqshunos olim, ustozimiz A.Saidov tomonidan chop etilgan "Amir Temur va Fransiya" kitobining "Amir Temurning diplomatik yozishmalari" bo'limida Fransiya Milliy arxivida saqlanayotgan ana shu xatlardan ba'zilari o'zbek tiliga tarjima bilan berilgan [7, 229 bet].

Xil'da Xukxem Amir Temurning josuslari haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlar berib o'tgan [8, 18 bet].

Tarixda buyuk sarkardalar ko'p bo'lgan. Agar fransuz sarkardasi Napoleon bilan Temurni qiyoslaydigan bo'lsak, ikkinchisi birinchisidan o'n chandon ustun turadi. Napoleon jahongir bo'lib borgan joylarini vayron etib, bunyodkorlikka ham e'tibor bergan bo'lsa, Temur o'z davrining buyuk sarkardasi – fотиhi sifatida ko'p yerlarni zabt etadi. Lekin u yerlarda ham bino qurdirdi, kanal qazdirib, suv chiqartirdi [6].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temur va Temuriylar davri tarixi xorijiy tarixchilarning doimo e'tiborida bo'lgan. Ular ilmiy tadqiqotlari orqali buyuk sarkardaning davlatchilikdagi o'rni va faoliyatini yoritib berishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gazeta.uz sayti
2. Amir Temur jahon tarixida. Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni, 1966. - 296b.
3. Rui Gonsales de Klavixo. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida: Buyuk Temur tarixi / tarjimonlar: U. Jo'rayev, B.Ermatov /. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. -208b
4. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent: "Sharq" nashriyot – matbaa konsernining bosh tahririyati, 1997. -384b
5. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi taymur. Toshkent: "Mehnat". 1992-yil. - 192 bet
6. L.Keren, A.Saidov. Amir Temur va Fransiya / Mas'ul muharrir: U.Tojixonov /. Toshkent: "Adolat", 1966. – 88b.
7. Shohistaxon O'ljayeva. Amir Temur va Temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2005. -270b.



8. Shohistaxon O'ljayeva . Amir Temur diplomatiyasi . Toshkent : "IJOD-PRESS" ,
2018. -156b.